

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**Ro'yxatga olindi
№ MO 10-57
2021 yil**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy
va o'rta maxsus ta'lim vazirining
2021 yil "25" dekabr dagi
538 - sonli buyrug'i bilan
tasdiqlangan**

“Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo'yicha)”

yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini
qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursining o'quv dasturi

Toshkent – 2021

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIY-METODIK MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

*Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o'quv dasturi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lism yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini
Muvofiqlashtiruvchi kengashining
2021 yil 25-dekabrdagi 9-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan*

- Tuzuvchilar:**
- “Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish” moduli:
yu.f.n., prof. V.Topildiyev, t.f.n., dos. B.Sh.Usmonov, t.f.n., dots. R.A.Xabibullayev
- “Ilmiy va innovasion faoliyatni rivojlantirish” moduli: i.f.d., prof. R.Nurimbetov, i.f.d., prof. F.Nazarova, p.f.n., dots. M.Dexkanova
- “Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish” moduli: p.f.d., prof. N.Muslimov, katta o'qituvchi R.Ishmuxamedov
- “Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish” moduli:
p.f.d., prof. F.Zakirova, f.-m.f.n., dots. V.Karimova.
- “Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili” moduli: katta o'qituvchilar F.Boysariyeva, N.Djabborova, S.Tadjibayeva, U.Giyasova, Sh.Fayzullayeva
- “Mutaxassislik fanlari” moduli: i.f.d., dots. A.Mamatqulov, i.f.d., prof R.D.Dusmuratov, q.x.f.d., prof. J.B.Xudayqulov, q.x.f.n, dots. B.B.Tuxtashev, q.x.f.d., prof. B.M.Azizov.

- Taqrizchilar:**
- Xorijiy ekspert: Sun Ho Choi** - Koreyaning O'zbekistondagi KOPIA markazi direktori, professor.
- X.Sheraliyev** - TDAU “Dehqonchilik va meliorasiya” kafedrasи dotsenti, q.x.f.n.

*O'quv dasturi Toshkent davlat agrar universiteti Kengashining qarori bilan tasdiqqa tavsiya
qilingan (2021 yil _____dagi ____- sonli bayonnomasi).*

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi tasdiqlangan “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to’g’risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo’lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovasion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg’or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o’zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko’nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo’yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo’yladigan umumiyligi malaka talablari va o’quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo’lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o’quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovasion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo’naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o’quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo’yicha so’nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo’llash bo’yicha tegishli bilim, ko’nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishga yo’naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo’nalishining o’ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarining mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko’nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo’yladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursining o’quv dasturi quyidagi modullar mazmunini o’z ichiga qamrab oladi:

I. Pedagogning professional faoliyatidagi innovasiyalar

- 1.1. Kredit modul tizimi va o’quv jarayonini tashkil etish.
- 1.2. Ilmiy va innovasion faoliyatni rivojlantirish.
- 1.3. Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish.

II. Pedagogning axborot va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish

- 2.1. Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish.

2.2. Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili.

III. Mutaxassislik fanlari

- 3.1. O'simlikshunoslikda innovation texnologiyalar.
- 3.2. Dehqonchilikda resurstejamkor texnologiyalar.
- 3.3. Agronomiyada zamonaviy ilmiy tadqiqot uslublari.
- 3.4. Intellektual mulk obyektlari va ularni muhofaza qilish.

IV. Malakaviy attestasiya

Kursning maqsadi va vazifalari

Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarni innovation yondoshuvlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek, ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- "Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo'yicha)" yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;
- pedagoglarning ijodiy-innovation faollik darajasini oshirish;
- mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta'minlash;
- maxsus fanlar sohasidagi o'qitishning innovation texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarini o'zlashtirish;
- "Agronomiya (dehqonchilik mahsulotlari turlari bo'yicha)" yo'nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovasiyalar bilan o'zaro integrasiyasini ta'minlash.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:

"Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish", "Ilmiy va innovation faoliyatni rivojlantirish", "Ta'lim jarayoniga raqamlı texnologiyalarni joriy etish", "Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili" modullari bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar tegishli ta'lim sohasi bo'yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari bilan belgilanadi.

Mutaxassislik fanlari bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- sohaga doir qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyatini;
- O'zbekistonda g'allachilikning hozirgi holati, rivojlanishi va istiqbollarini;
- paxtachilik va g'allachilikda resurstejamkor texnologiyalarni;

- moyli ekinlar guruhi va ularni yetishtirishda innovasion texnologiyalarni qo'llashni;

- istiqbolli g'alla, don-dukkakli yem-xashak, tuganak va ildizmevali ekinlarini yetishtirishda zamonaviy innovasion texnologiyalarni;

- tuproqqa ishlov berish, ekinlarni sug'orishga tatbiq etilayotgan innovasion resurstejamkor texnologiyalar va ulardan foydalanishni;

- agronomiyada ilmiy tadqiqot olib borish uslublarini;

- intellektual mulk obyektlari va ularning turkumlanishi, mohiyati va ahamiyatini hamda mahsulot va xizmatlarni lisenziyalash va sertifikatlashtirish qoidalarini **bilishi kerak.**

Tinglovchi:

- sohaga doir mavzularni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash;

- g'o'za, boshoqli don, tariqsimon va dukkakli, moyli, tuganakmevali, ildizmevali, yem-xashak ekinlari umumiyl morfologiyasi va sistematikasi mavzularini o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash;

- qishloq xo'jaligida GIS texnologiyadan foydalanish;

- tuproq unumdarligini saqlash va yerdan foydalanishni rejalashtirish;

- begona o'tlarga qarshi uyg'unlashgan kurash choralarini ishlab chiqish;

- agronomiyada ma'lumotlarni matematik dispersion tahlil qilish uslublarini qo'llash;

- bir va ko'p omilli omilli tajriba ma'lumotlarini B.A.Dospexov uslubida dispersion va statistik usullarda tahlil qilish;

- tajriba ma'lumotlarini Sakolov va Peregudov usullarida tahlil qilish;

- intellektual mulk obyektlarini baholash **ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.**

Tinglovchi:

- yerdan sug'orishda suvga bo'lgan ehtiyojni aniqlash;

- ekinlarni qisqa almashlab va navbatlab ekish;

- suvtejamkor texnologiyalardan foydalanish;

- ekinlar hosilini dasturlash;

- donli ekinlar hosildorligini bashorat qilish;

- qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish;

- intellektual mulk obyektlariga egalik huquqini rasmiylashtirish **malakalarga ega bo'lishi kerak.**

Tinglovchi:

- sug'oriladigan maydonlardan samarali foydalanishni tashkil etish;

- dala tajribalarini rejalashtirish, qo'yish va olib borishning zamonaviy uslublarini qo'llash;

- laboratoriya, lizimetrik va vegetasion tajribalar olib borish;

- ilmiy tadqiqot ishlarida hisob va fenologik kuzatuvarlarini amalga oshirish;

- sho'r yuvish me'yorlarini belgilash;

- g'alla ekinlarini qishga va sovuqqa chidamlilagini oshirish ishlarini tashkil etish;

- hosildorligini bashorat qilish va dasturlash;

- don sifatini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni boshqarish;
- intellektual mulk obyektlarini baholash va ularga egalik qilish huquqlarini rasmiylashtirish **kompetensiyalariga** ega bo'lishi zarur.

Kurs hajmi

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi 288 soatni tashkil etadi. Bunda o'quv dasturining 144 soat hajmi ishdan ajralmagan holda mustaqil malaka oshirish usullari asosida, 144 soati to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) malaka oshirish shaklida ishdan ajragan holda amalga oshiriladi. Malaka oshirishning bevosita shaklida bir haftadagi o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi 36 soatni tashkil etadi. Attestasiyadan muvaffaqiyatli o'tgan kurs tinglovchilariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi PF-4732-son Farmoni 3-ilovasi bilan tasdiqlangan davlat namunasidagi malaka attestati beriladi.

“AGRONOMIYA (DEHQONCHILIK MAHSULOTLARI TURLARI BO'YICHA)” YO'NALISHI BO'YICHA QAYTA TAYYORLASH VA MALAKA OSHIRISH KURSI O'QUV MODULLARINING MAZMUNI

I. PEDAGOGNING PROFESSIONAL FAOLIYATIDAGI INNOVASIYALAR

1.1. Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish.

Xorijiy davlatlardagi kredit ta'limga tizimlari: Amerika Qo'shma Shtatlari kredit tizimi (USCS), Kreditlarning to'plash va o'tkazishning Britaniya tizim (SATS), Yevropa kredit tizimi (ECTS), Universitet kreditlarini o'tkazishning Osiyo - tinch okeani tizimi (UCTS). Kredit tizimi asosida ta'limga jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta'minlashning innovasion metodlari. Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishini rejalashtirish va tashkil qilish. Kredit-modul tizimida pedagoglar faoliyati. Kredit-modul tizimida o'quv jarayonining uslubiy ta'minoti. Sillabus. Ta'limga natijalar (Blum taksonomiyasi asosida). Bilim darajalari. Ta'limga natijalarini baholash usullari.

Ta'limga sohasini boshqarishning huquqiy asoslari. Ta'limga sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmuni. Pedagog xodimlarning mehnat munosabatlarini tartibga solish. Ta'limga muassasalarida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy asoslari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta'limga tizimiga oid qabul qilgan farmonlari, qarorlari va farmoyishlari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta'limga tegishli normativ-huquqiy hujjatlari.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limga vazirligining ta'limga tarbiya jarayonini tashkil etishga oid normativ-huquqiy hujjatlari. Davlat ta'limga standartlari, tegishli ta'limga (mutaxassislik) yo'naliishlari bo'yicha davlat ta'limga standarti, o'quv rejalar va fan dasturlari va ularga qo'yiladigan talablar. O'quv rejalarini va o'quv fanlari dasturlarini takomillashtirish tamoyillari. O'quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish metodlari.

1.2. Ilmiy va innovasion faoliyatni rivojlantirish.

O’zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to’g’risida”gi hamda “Innovasion faoliyat to’g’risida”gi Qonunlari mazmuni va mohiyati.

O’zbekiston Respublikasida ilmiy va innovasion faoliyatni rivojlantirishning maqsadi, vazifasi va uning metodologik asoslari. Ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish va innovasion faoliyatning huquqiy asoslari. Ilmiy ishlanmalar va tijoratlashtirish obyektlari. Innovasion ishlanmalar, davlat ilmiy-texnik dasturlari, loyihalari, startap-loyihalarni rasmiylashtirish. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovasiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirishning uzviy bog’liqligini nazarda tutuvchi «Universitet 3.0» konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish.

Zamonaviy universitetlarda texnologiyalar va loyiha boshqaruvi. Fan, ixtirochilik va texnologiyalar transferini rivojlantirish va innovasion faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish.

Infratuzilma va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini rivojlantirish. Ta’lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish. Pedagogning innovasion faoliyatini rivojlantirish. Professor-o’qituvchilarining tadqiqotchi sifatida nashr faolligini rivojlantirish. Xalqaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazalari va ularning tavsiflari. Ilmiy maqolalarga qo’yilgan talablar, maqolani tayyorlash, chop ettirish tartiblari. Pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini Scopus, ScienceDirect, Web of Sience tizimlari asosida takomillashtirish.

1.3. Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish.

Professional o’qituvchi shaxsi. Pedagogning kompetentligi va kreativligi. Pedagogning kasbiy professionalligi va uni innovasion faoliyatda namoyon bo’lishi. Kasbiy-pedagogik tayyorgarlik jarayonida tayanch (soft skills), maxsus (hard skills) kompetensiyalar mazmuni. Modulli-kompetentli, integrativ, innovasion-kreativ yondashuvlar. Ta’lim jarayonini loyihalash va modellasshtirish pedagogning kasbiy professional ijodkorligini rivojlantirish omili.

O’quv mashg’ulotlarining zamonaviy turlarini (loyiha, aralash ta’lim, virtual laboratoriya, debat) tashkil etish va o’tkazish metodikasi. Talabalarda tanqidiy, o’zini-o’zi (motivasion, intellektual, amaliy-faoliyatli, faol kommunikasiya va jamoaviy ish) rivojlantirish va kreativ fikrlashni shakllantirish usullari (dizayn-fikrlash, skamper va x.q.). Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning zamonaviy shakllari.

Steam-ta’lim (Science – aniq fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – texnik ijodkorlik, Art – ijodiy san’at, Mathematics – matematika) va STREM-ta’lim (fan, texnologiyalar, robot texnikasi, injeneriya va matematika) xususiyatlari.

II. PEDAGOGNING AXBOROT VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

2.1. Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish.

Raqamli texnologiyalar va ularning didaktik imkoniyatlari. Ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish. «Elektron universitet» va uning xususiyatlari.

Vebinlar, onlayn ma’ruza, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyatga joriy etish. Masofaviy ta’lim platformalari va ulardan foydalanib, ta’lim jarayonlarini tashkil etish.

Ta’lim jarayonlarida «bulutli texnologiyalar»dan foydalanish. Bulutli texnologiyalardan foydalangan holda o’quv jarayonini va axborot ta’lim maydonini takomillashtirish.

Multimediali interaktiv o’quv-uslubiy qo’llanmalarni va elektron ta’lim resurslarini yaratish, ulardan ta’lim tizimida foydalanish. QR-kod va undan foydalanish.

Pedagogik faoliyatda interaktiv infografika vositalaridan foydalanish.

2.2. Maxsus maqsadlarga yo’naltirilgan ingliz tili.

Maxsus maqsadlarga yo’naltirilgan ingliz tili (English for Specific Purposes) – kasb sohasidan kelib chiqib ingliz tilini o’rgatish. Kasb soha vakillari tomonidan minimal grammatika (Present Indefinite Tense, Present Continuous Tense, Past Indefinite Tense, Future Indefinite Tense) hamda sohaga oid faol so’zlarni (minimal 400) yoddan bilishi. Grammatika va leksikani kommunikativ maqsadlarda o’rgatishga zamonaviy yondashuv. Ingliz tilida autentik vaziyatlarni tahlil qilish. Tinglovchilarda autentik vaziyatlarga oid: e-mail yozish, so’zlashish (ilmiy yo’nalishi haqida), tushunish (jarayonni tinglab tushunish) va o’qib tushunish (gazeta va jurnallardagi kasb sohasiga oid maqolani o’qish) ko’nikmalarini rivojlantirish.

Sohaga yo’naltirilgan mavzularda til ko’nikmalarini rivojlantirish, mutaxassislik fanlarini xorijiy tilda o’qitishni loyihalashtirish. Ilmiy tadqiqotlarga yo’naltirilgan til ko’nikmalarini o’zlashtirish, ilmiy matnlarning rezyumesini tayyorlash, xorijiy adabiyotlar bilan ishlash. Xorijiy mutaxassislar bilan muloqot stereotiplari. Elektron xatlar yozish, xorijiy tilda taqdimotlar tayyorlash.

Kundalik va ijtimoiy hayotga oid mavzular: Shaxs va shaxsiyat. Oziq-ovqat. Sihat-salomatlik. Oilaviy qadriyatlar. Shahar va qishloq hayoti. Dam olish va sport bilan shug’ullanish. Kasb-hunar va ishbilarmonlik. Ommaviy axborot. Munosabatlar. Tibbiyot, ilm-fan, zamonaviy texnologiyalar sohasidagi etika masalalari.

Rezyume to’ldirish, madaniy hordiq, telefonda suhbat. Sayohat va turizm, transport sohasi, biznes faoliyat, kashfiyotlar, san’at, fan, ta’lim va texnologiya sohasi, atrof-muhitni muhofaza qilish. Sohaga oid davrning eng dolzarb muammolarini o’rganish, muhokama va tahlil qilish.

III. MUTAXASSISLIK FANLARI

3.1. O’simlikshunoslikda innovation texnologiyalar.

Donchilikning hozirgi holati, rivojlanishi va istiqbollari. Don-dukkakli ekinlarni yetishtirishning innovation agrotexnologiyasi, Paxtachilikda zamonaviy

innovation texnologiyalar ularning qo'llanilishi. Moyli ekinlar guruhi va ularni yetishtirishda innovation texnologiyalarini qo'llash samaradorligi. Tuganakmevali, ildizmevali va yem-xashak ekinlarni yetishtirishda zamonaviy innovation texnologiyalar. Donli va don-dukkakli ekinlar morfologiyasi. Moyli ekinlar morfologiyasi. Yem-xashak ekinlari morfologiyasi. Tuganakmevali ekinlar morfologiyasi. Ildizmevali ekinlar morfologiyasi. G'o'zaning umumiyligi morfologiyasi.

3.2. Dehqonchilikda resurstejamkor texnologiyalar.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ekinlaridan mahsulot yetishtirishda zamonaviy resurstejamkor texnologiyalarni qo'llash. Tuproqqa ishlov berishning innovation texnologiyalari. Qisqa rotasiyalı almashlab ekish tizimlari va uni qishloq xo'jaligiga tatbiq etish. Sug'orish texnologiyalarini takomillashtirish, suv taqsimlashni mexanizasiyalashtirishda zamonaviy texnologiyalar. Tuproqqa ishlov berishda, ekinlarni sug'orish, parvarishlashga tatbiq etilayotgan innovation resurstejamkor texnologiyalar va ulardan foydalanish. Qishloq xo'jaligida GIS texnologiyadan foydalanish. Tuproq unumdorligini saqlash va yerlardan foydalanishni rejashtirish.

3.3. Agronomiyada zamonaviy ilmiy tadqiqot uslublari.

Agronomiyada ilmiy tadqiqot olib borish uslublari fanining ahamiyati, maqsadi va vazifalari. Dala tajribalarini rejashtirish, quyish va olib borishning zamonaviy uslublari. Laboratoriya, lizimetrik va vegetasion tajribalar olib borish uslublari. Ilmiy tadqiqot ishlarida hisoblash va fenologik kuzatuvlar olib borish. Agronomiyada ma'lumotlarni matematik dispersion tahlil qilish uslublari. Bir omilli dala tajribalarda natijalarni dispersion tahlil qilish. Ko'p omilli tajribalarda natijalarni dispersion tahlil qilish. Malumotlarni Sokolov usulida pog'onali statistik tahlil qilish. Bir omilli tajribalarda natijalarini Peregudov usulida dispersion tahlil qilish.

3.4. Intellektual mulk obyektlari va ularni muhofaza qilish.

Intellektual mulk obyektlari va ularning turkumlanishi, mohiyati va ahamiyati. Lisenziya, sertifikat va patent tushunchalari. Mahsulot va xizmatlarni lisenziyalash va sertifikatlashtirish. Intellektual mulkka patent olish qoidalari. Intellektual mulk obyektlarini baholash. Intellektual mulk obyektlariga egalik huquqini rasmiylashtirish.

IV. Malakaviy attestasiya

Tinglovchilarning malakaviy attestasiyasi kasbiy, o'quv-metodik va ilmiy-metodik faoliyati natijalari (elektron portfolioda qayd etilgan ko'rsatkichlari), kursni tamomlagandan keyingi onlayn test sinovlari hamda Attestasiya komissiyasida bitiruv ishini himoya qilish asosida o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar o'quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o'quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog'liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Amaliy mashg'ulotlar zamонавиу та'lim uslublari va innovation texnologiyalarga asoslangan holda o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o'quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ko'chma mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Ko'chma mashg'ulotlar nazariy va amaliy mashg'ulotlarda olingen bilim hamda ko'nikmalarini yanada mustahkamlash maqsadida oliy ta'lim muassasalari, iqtisodiyot tarmoqlari soha korxona va tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot muassasalarda tashkil etiladi.

Mustaqil malaka oshirishni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Mustaqil malaka oshirish quyidagi shakllarni o'z ichiga oladi: ochiq o'quv mashg'ulotlari va mahorat darslarini tashkil etish; iqtidorli va iste'dodli talabalar bilan ishlash; ilmiy konferensiyalarda ma'ruza bilan qatnashish; ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish; ko'rgazma va tanlovlarda ishtirok etish; ilmiy loyihalarda ishtirok etish; xalqaro (impakt-faktorli) nashrlarda maqolalar e'lon qilish; ixtiro (patent), rasionalizatorlik takliflari, innovation ishlanmalarga mualliflik qilish; monografiya, mualliflik ijodiy ishlar katalogini tayyorlash va nashrdan chiqarish; o'quv adabiyotlari (darslik, o'quv qo'llanma, metodik qo'llanma)ni tayyorlash va nashrdan chiqarish; falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun himoya qilingan dissertasiyaga ilmiy rahbarlik qilish.

Pedagog kadrlarning mustaqil malaka oshirish natijalari elektron portfolio tizimida o'z aksini topadi.

Mustaqil malaka oshirish davrida pedagoglar asosiy ish joyi bo'yicha pedagogik amaliyotdan o'tadilar. Pedagogik amaliyot davrida pedagog asosiy ish joyi bo'yicha kafedraning yetakchi professor-o'qituvchilarini 2 ta darsini kuzatadilar va tahlil qiladilar hamda kafedra a'zolari ishtirokida talabalar guruhi uchun 1 ta ochiq dars o'tkazadi. Ochiq dars tahlili hamda pedagog tomonidan kuzatilgan darslar xulosalari kafedraning yig'ilishida muhokama etiladi va tegishli kafedraning bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Shuningdek, mustaqil malaka oshirish jarayonida tinglovchi qo'yidagi bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishi lozim:

- oliy ta'lim to'g'risidagi normativ-huquqiy va direktiv hujjatlarni, oliy ta'lim davlat ta'lim standarti, klassifikator, malaka talablari, shuningdek, o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv dasturini takomillashtirish;
- ta'lim, fan va ishlab chiqarishni integrasiyalashni tashkil etish, kadrlar buyurtmachilari va mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'quv rejalarini va fanlar dasturlarini shakllantirish;
- bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish va uning sifatini ta'minlashning zamонавиу

metodlarni qo'llash, shuningdek, o'quv rejalari va o'quv fanlari dasturlarini takomillashtirish, o'quv yuklamalarini rejashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish, o'quv fanlari mazmuni va ularni o'qitishdagi izchillik asoslari asosida tashkil etish, o'quv mashg'ulotlarining har xil turlarini (ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya mashg'ulotlari, kurs ishlari loyihalari, malaka bo'yicha amaliy mashg'ulotlar) tashkillashtirish;

- talabalar o'rtasida milliy mustaqillik g'oyalari asosida ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish, ta'lim jarayoni qatnashchilari bilan o'zaro munosabatlarda etika normalari va nutq madaniyati; talabalarning bilim va ko'nikmalarini nazorat qilishni tashkil etish va ilmiy-metodik ta'minlash; iqtidorli talabalarni qidirib topish, tanlash va ular bilan ishlash metodlarini bilish va amalda qo'llash;
- oliy ta'limda menejment va marketing asoslarini bilish va amaliy faoliyatga tatbiq etish;
- mustaqil ta'lim olish yo'li bilan o'z bilimlarini takomillashtirish.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimedia mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalilanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 oktyabrdagi «Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PF-5199-sonli Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentyabrdagi “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovasion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydag'i “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5729-son Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi “Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida”PF-5742-son Farmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdag'i “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzliksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy

ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.

17. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo’lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.

18. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 iyundagi “Aholi tomorqalaridan foydalanish samaradorligini oshirishning qo’shimcha chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-4767-sonli Qarori.

19. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 797-sonli qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Azizov B.M, Xudayqulov J.B. va bosh. “O’simlikshunoslikda ilmiy tadqiqot ishlari” – T.: Tosh DAU nashriyoti, 2020.

2. Асекретов О.К., Борисов Б.А., Бугакова Н.Ю. и др. Современные образовательные технологии: педагогика и психология: монография. – Новосибирск: Издательство ЦРНС, 2015. – 318 с.

<http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>

3. Atabayeva X.N., Xudayqulov J.B. “O’simlikshunoslik”, – Т.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2018.

4. Белогуров А.Ю. Модернизация процесса подготовки педагога в контексте инновационного развития общества: монография. – М.: МАКС Пресс, 2016. — 116 с. ISBN 978-5-317-05412-0.

5. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhamedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. – 312 b.

6. Ibraymov A.Ye. Masofaviy o’qitishning didaktik tizimi. metodik qo’llanma/ tuzuvchi. A.Ye. Ibraymov. – Т.: “Lesson press”, 2020. – 112 bet.

7. Игнатова Н. Ю. Образование в цифровую эпоху: монография. М-во образования и науки РФ. – Нижний Тагил: НТИ (филиал) УрФУ, 2017. – 128 с. http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf

8. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O’quv jarayonida innovasion ta’lim texnologiyalari. – Т.: «Fan va texnologiya», 2014. – 60 b.

9. Muslimov N.A va boshqalar. Innovasion ta’lim texnologiyalari. O’quv metodik qo’llanma. – Т.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

10. Oliy ta’lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiysi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko’magida. <https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3. UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf>

11. Ochilov Ye, Uraimov T. Dehqonchilikda ilmiy izlanish asoslari. Т.: “Tafakkur nashriyoti”, 2018.

12. Usmonov B.Sh., Habibullayev R.A. Oliy o’quv yurtlarida o’quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O’quv qo’llanma. Т.: “Tafakkur”

- nashriyoti, 2020 y. – 120 b.
13. O’zbekiston qishloq xo’jaligi ekinlari Davlat Rejestri. 2018-2019.
 14. O’zbekistonda paxta yetishtirish agrotexnikasi bo’yicha tavsiyanoma. PASUITI olimlari hammualliflikda. 2019.
 15. Beat Boller·Ulrich K. Posselt·Fabio Veronesi“Fodder Crops and Amenity Grasses” Spring New York 2010.
 16. Christopher Martius, Inna Rudenko, John P a Lamers. Cotton, Water, Salts and Sooms: Economic and Ecological Restructuring in Khorezm, Uzbekistan by ISBN-13:9789401781817. 2012.
 17. Christopher Martius, Inna Rudenko, John P a Lamers. Cotton, Water, Salts and Sooms: Economic and Ecological Restructuring in Khorezm, Uzbekistan by ISBN-13: 9789401781817. 2012.
 18. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
 19. Egamberdiyev O., NurbekovA. How to reduce spending and improve harvests. Journal – Land Energy biodiversity. 3-6 page, Newsletter № 5. 2014.
 20. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010, – 204 b.
 21. Gordon S., Hsieh Y.L. Cotton: Science and Technology by 2006, Wood head Publishing Ltd,ISBN-13: 9781845690267.
 22. Gordon S., Hsieh Y.L. Cotton: Science and Technology by 2016, Wood head Publishing Ltd, ISBN-13: 9781845690267.
 23. H.Q. Mitchell “Traveller” B1, B2, MM Publications. 2015. – 183.
 24. H.Q. Mitchell, Marilena Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications. 2015. – 191 b.
 25. Hartwig Geiger, Josef Nosberger, Paul Struik. Crop science: Progress and prospects. USA © 2001, ISBN-13: 9780851995304.
 26. Johann Vollmann, Istvan Rajcan. Oil Crops. Spring, New York10013, USA. 2009.
 27. Lindsay Clandfield and Kate Pickering “Global”, B2, Macmillan. 2013. – 175 b.
 28. Margaret J. McMahon; Anton M. Kofranek; Vincent e. Rubatzky “Plant science growth, development, and utilization of cultivated plants” – 2011
 29. Moo-Sang Lim. Lecture note on rice technology under temperate zone. Tashkent-2002. – P.388.
 30. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
 31. Zargar M, Pakina E.N, Methods of statistical analyzes in agronomy Education and Methodical Complex. 2017.

IV. Internet saytlar

32. <http://edu.uz> – O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi.
33. <http://agro.uz> – O’zbekiston Respublikasi Qishloq xo’jaligi vazirligi.
34. <http://lex.uz> – O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
35. <http://bimm.uz> – Bosh ilmiy-metodik markaz.
36. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali ZiyoNET.

37. <https://tdau.uz> – Toshkent davlat agrar universiteti.
38. <https://agrobusiness.uz> – O’zbekiston agrobiznes assosiasiyasi.
39. <https://agro-olam.uz>.
40. <http://www.Plant growing-Grain production technology>, 2020.
41. <http://www.Grain crops-Morphology of Cereal crops>, 2020.
42. <http://www.Plant protection.com>-2020.
43. <http://www.Wikepedia - wheat, corn, buckwheat, rice and etc.> -2020.
44. <http://www.FAO.ru.>-2020.
45. <http://www.agronomy.org.>-2020.
46. <http://www.Cotton science> -2020.

“ISHLAB CHIQILGAN”:

Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish
Bosh ilmiy-metodik markazi
Direktor _____ T.T.Shoymardonov
“_____” _____ 2021 y.
M.O’.

Toshkent davlat agrar universiteti o’quv ishlari prorektori _____ S.Islamov

“_____” _____ 2021 y.
M.O’.

Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi
Direktor _____ A.V.Mamatqulov

“_____” _____ 2021 y.
M.O’.

“KELISHILGAN”:

Kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish hamda muvofiqlashtirish boshqarmasi
Boshqarma boshlig’i _____ F.T.Esanboboyev
“_____” _____ 2021 y.
M.O’.

Qishloq xo’jaligi vazirligida bilim va innovasiyalar tizimini rivojlantirish boshqarmasi
Boshqarma boshlig’i _____ Sh.Amanov

“_____” _____ 2021 y.
M.O’.